

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" VA ABULG‘OZI BAHODIRXONNING " SHAJARAYI TURK" ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Keldiboyeva Zarnigor Xasanboy qizi

FDU filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va Abulg‘ozi Bahodirxonning " Shajarayi turk" asarlaridagi umumiyliklar ko‘rsatib o‘tiladi. "Shajarayi turk" ning voqealar bayoni va ularni nasrda ifodalash uslubiga ko‘ra monumental tarixiy memuar asar "Boburnoma" ga yaqinlashtiradi. Har ikki asarning prozada badiiy sayqal topganligi, o‘zbek tili nozikliklaridan mahorat bilan foydalanilganligi va tarixiy ma‘lumotlarga boyligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy voqelik, umumiylik, shoh, shoir, memuar asar

"Boburnoma" va "Shajarayi turk" da turli voqea- hodisalar, tarixiy sharoit, tarixiy shaxslar, joy nomlari tasviri, umuman XV asr oxiri, XVI va XVII asr muhitini qamrab olmasin, bu tasvirlarning asosiysi mualliflar hayoti bilan bevosita bog‘liq holda aks ettirilgan. Shu sababli asarlar o‘ziga xos memuarlik kasb etgan. Ikki asarning ham bosh qahramonlari muallifning o‘zi hisoblanadi. "Boburnoma" va "Shajarayi turk" asarlarining boshidan to oxirigacha Boburmirzo va Abulg‘ozi Bahodirxon goh muallif, goh tajribali davlat boshqaruvchisi, goh serqirra ijodkor, goh kuchli siyosatchi, goh tarixchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat nazmda, balki nasrda ham qalam tebrata olgan serqirra ijodkordir. Bugungi kungacha dunyo adabiyotida o‘z o‘rniga ega "Boburnoma" asari tarixiy-memuar asar sifatida ajdodlar tarixini o‘rganishda eng ishonchli manbalardan biridir. Abulg‘ozi Bahodirxonning ham shohlik va ijodkorlik faoliyatlari Zahiriddin Muhammad Boburni yodga soladi. Abulg‘ozi Bahodirxon Bobur kabi o‘tkir zehnlilik, tadbirlik

sarkarda, o'zbek adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkordir. Abulg'oz Bahodirxon davlat boshqaruvi bilan birgalikda "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlarini yozdi. "Shajarayi turk" asari 1664-yili yozib tugallandi. Abulg'oz asarda tasvirlanishi kerak bo'lgan voqealarni qadimdan (Odam atodan) boshlaydi. Tadqiqotchilar fikricha 9 bobdan iborat bu asarning 7-8 va 9 -bobning bir qismini Abulg'ozining o'zi, 1-6 va 9- bobning oxirini Muhammad Zamon Urganjiy yozgan. Abulg'oz o'z hukmronlik yillaridagi voqealar solnomasini o'zigacha bo'lgan tarix kitoblari, xalq og'zaki ijodi namunalariga tayanib yozadi. U bunda etnografik ma'lumotlardan, afsona va rivoyatlardan unumli foydalanadi.

"Shajarayi turk" ga xos fazilatlaridan biri shundaki, muallif tarixiy- voqea hodisalar bayoniga badiiy tus berishga, ularni yo'l-yo'lakay etnografik ma'lumotlar, rivoyatlar, maqollar, naqlar, sajli badiiy lavhalar bilan o'qishli qilishga intiladi. Unda 400 dan ortiq shaxslar, hukmdorlar, malikalar, din-tasavvuf ahllari haqida ma'lumotlar keltiriladi, ayrimlarining portretlari chiziladi. Bunday xususiyatlar, "Shajarayi turk" ning voqealar bayoni, ularni nasrda ifodalash uslubiga ko'ra monumental tarixiy-memuar asar "Boburnoma" ga yaqinlashtiradi. "Boburnoma" ning janri, qachon yozilganligi kabi bir qator masalalar ko'p vaqtlardan beri bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. "Boburnoma" ni ko'plab olimlar Boburning kundalik daftari deb izohlab, uni Bobur umri davomida yozgan deb bayon qilishgan. "Boburnoma" taxminan 1518/19-1530-yillar orasida yozilgan deyiladi. Asar chala tugallanmasdan qolgan. Bobur shohlikni Humoyunga vasiyat qilganidan keyin asar ustida qattiqroq ishlagan.

Biroq Boburga asarni yakunlash nasib bo'lmaydi. Keyinchalik Akbarshohning topshirig'i bilan Boburning qizi Gulbadanbegim go'yo asarning davomini alohida bir kitob qilib ("Humoyunnoma"), unda Humoyun tarixini ham bayon qiladi.

Shu fikrlarimiz asosida «Shajarayi turk»ning «Boburnoma»dan farqli tomoni ko'zga tashlanadi. Bu farq shundan iboratki, Abulg'oz Bahodirxon «Shajarayi turk»ni o'z dastxati bilan yozmagan. Zahiriddin Muhammad Bobur esa «Boburnoma»ning ilk nusxasini o'zi yozgan edi. «Boburnoma» va «Shajarayi turk»ning yozilish jarayoniga doir fikrlarimizga shunday xulosa yasash mumkin bo'ladi.

Boburning «Boburnoma»ni yozishdan asosiy maqsadi temuriylarning keyingi vakillaridan biri sifatida o'zining memuarini yaratishdan iborat bo'lgan. Abulg'ozzi ham «Shajarayi turk»da o'z ajdodi shajarasini, Xivada hukmronlik qilgan ota-bobolari tarixini, qolaversa, o'zi boshidan kechirgan voqea-hodisalarni yozishni maqsad qiladi. Ko'rinadiki, ikki hukmdorning ham ijodiy niyati va maqsadi mushtarak. Boburnoma jimjimadorlikdan xoli, samimiy va sodda jumalarda yozilgan bo'lsa-da, biroq tarixiy voqelik bayonida nosir Bobur bilan birga shoir Bobur mahorati ham sezilib turadi. Buni biz Boburning portret yaratish san'atida, peyzaj tasvirlarini chizishida, xalq og'zaki ijodidan foydalanishdagi mahoratida, xullas, shohdan tortib oddiy insonga bo'lgan munosabati misolida yorqin his qilamiz. «Shajarayi turk»dagi badiiylik rivoyat, ertak, hikoyatlarning badiiyatiga hamohang. Chunki Abulg'ozzi tarixiy voqealar bayonida maqol va ertaklardan ijodiy foydalanadi, badiiy tasvir vositalarini ishlatadi. Shuning uchun «Shajarayi turk»da badiiy bo'yodkorlik bo'rtibroq ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, o'tmishda ham davlat boshqaruvini, ham ijodkorlik faoliyatini olib borgan ijodkorlar juda ko'p. Ammo ular orasida Zahiriddin Muhammad Bobur va Abulg'ozzi Bahodirxon ijodiy umumiyliqi, adabiy yaqinliqi, qolaversa boshidan o'tkazgan qiyinchiliklar, turli hayot zarbalarining o'xshashliqi kishini ajablantiradi. Bu kabi qiyosiy tahlillar ijodkorlarning hayoti va ijodini yanada chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abrajeev A.I. Abulg'ozzi Bahodirxon "Shajarayi turk" asarining adabiy ahamiyati. –T.: O'zdavrnashr, 1944. – 290 b.
2. // "Boburnoma"-tarixiy memuar asar // Ziyokor. 2002. № 4.-B.
3. Otajonov N. «Boburnoma» jahon adabiy jarayonida: Qiyosiy- tipologik tahlil. Filol.fanlari.d-ri diss. –T.: 1994. - 290 b.
4. Xo'jayev F. «Boburnoma» an'analari // Adabiy meros. T.: 1989 -№2 –B. 228-230.
5. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1967. – B. 116.